



Bank Boshqaruvi yig'ilishining
2026-yil 28-yanvardagi
63-sonli bayoniga
ilova

"Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2024-yil 1-iyuldagi 426-son bayoni bilan tasdiqlangan va 906-son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I. Tartibning "VII. Kreditlarning monitoringi, kredit ta'minoti bilan bog'liq jarayonlar va kreditdan maqsadli foydalanishni nazorat qilish" bo'limi quyidagi 7.21-band va 7.21.1.dan 7.21.5.-kichik bandlar bilan to'ldirilsin:

"7.21. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish quyidagi tartibda amalga oshirilsin:

7.21.1. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha kreditning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish (prolongatsiya), muddat uzaytirilmagan holda, grafik to'lovlariga o'zgartirish (restrukturizatsiya) kiritish kabi imtiyoz turlari qo'llaniladi (qonun hujjatlari, hukumat topshiriqlari asosida taqdim qilinadigan maxsus imtiyozlar ham qo'llanilishi mumkin). Bunda imtiyoz faqat garov ta'minotiga ega bo'lgan kreditlarning asosiy qarz to'lovlari bo'yicha taqdim qilinishi mumkin.

Agar kredit tashqi mablag'lar manbaasi hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, imtiyoz resurs egasining roziligi asosida taqdim qilinadi.

Bunda, mijozning sog'ligi bilan bog'liq (1 va 2-guruh nogironligi, tabiiy ofatlar, baxtsiz hodisalar sababli mehnat qobiliyatining vaqtincha yoki yo'qolishi), hukumat qarorlari va/yoki qonun hujjatlari asosida mijozning ishsiz qolishi kabi holatlar asos sifatida olinadi.

Shuningdek, qo'shimcha shartlar sifatida o'zgartirilishi so'ralayotgan kredit bo'yicha 30 (o'ttiz) kundan ortiq muddati o'tgan qarzдорlikning mavjud bo'lmashligi, 125 (bir yuz yigirma besh) foiz miqdorida garov ta'minoti bilan ta'minlanganligi belgilanadi;

7.21.2. Mijozda kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha yuqorida ko'rsatilgan asoslardan biri mavjud bo'lgan hollarda, ariza bilan birgalikda ushbu asoslarni tasdiqlovchi tegishli vakolatli tashkilot tomonidan taqdim qilingan hujjatlar qabul qilinadi;

7.21.3. Kredit shartlarini qayta ko'rib chiqishni so'rab murojaat qilingan arizalar ro'yxatga olingan holda tegishli vakolatli kollegial organ tomonidan 3 (uch) ish kuni ichida ko'rib chiqiladi. Bunda, hujjatlarni rasmiylashtirish modulsiz bo'lgan kreditlarni ajratish biznes-jarayonlari asosida amalga oshiriladi;

7.21.4. Mijozning kredit shartlarini o'zgartirish bo'yicha arizasi tegishli tartibda vakolatli kollegial organ tomonidan (vakolatlar darajasi bo'yicha) ko'rib chiqilib, ma'qullangan taqdirda 1 (bir) ish kuni ichida mijoz bilan kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv hamda yangi to'lov grafigi rasmiylashtiriladi va tegishli hujjatlar to'liq rasmiylashtirilganidan so'ng HKXKM Chakana va korporativ biznes monitoringi bo'limi

xodimi tomonidan Colvir ABTda tegishli amaliyotlar bajariladi.

Bunda, Bank tariflarida nazarda tutilgan kredit shartnomasiga o'zgartirish kiritilganlik uchun to'lov olinmaydi.

Ariza tegishli tartibda vakolatli kollegial organ tomonidan (vakolatlar darajasi bo'yicha) ko'rib chiqilib, rad javobi berilgan taqdirda 2 (ikki) ish kuni ichida asoslantirilgan hujjatlar ilova qilingan holda, mijozga yozma ravishda xabar beriladi;

7.21.5. Homiladorlik va tug'ish ta'tilini olgan ayollarning amaldagi kreditlari (faqat garov ta'minoti asosida ajratilgan kreditlar) bo'yicha to'lovlar muddatini 10 (o'n) oygacha uzaytirish, yuqorida ko'rsatilgan tartib asosida amalga oshiriladi hamda mijozdan homiladorlik va tug'ish ta'tili bo'yicha rasmiylashtirilgan tegishli tibbiyot muassasasidan olingan hujjatlar (nusxa olib, yig'majildga kiritish maqsadida) qo'shimcha ravishda olinadi.